



Article

Uchinchi molyarlarning davosi: zamonaviy yondashuvlar va kreativ yechimlar

L.Sh. Zakirov *¹, Q.J. Suvonov ¹

¹ Jarroxlilik stomatologiyasi va dental implantologiya kafedrasи, Toshkent davlat stomatologiya instituti, Toshkent, 100207, O'zbekiston
 zakirov.dds@gmail.com (L.Z.)
^{*} Correspondence: zakirov.dds@gmail.com; Tel.: +998 91 2795456 (L.Z.)

Xulosa:

Uchinchi molyarlar (aql tishlari) tibbiyotda keng muhokama qilinagan muammolardan biri bo'lib, ularning joylashuvi va anatomiq tuzilishi davolashni qiyinlashtiradi. Ushbu maqolada zamonaliv diagnostika va davolash usullarining samaradorligi hamda yangi jarrohlik texnikalari ko'rib chiqiladi.

Maqsad. Ushbu maqolaning maqsadi uchinchi molyar (aql tishi) ekstraksiyasidan keyingi asoratlarning tahlilini o'tkazish va ularning oldini olish hamda davolash usullarini o'rganish.

Materiallar va usullar. Tadqiqot retrospektiv tahlil asosida olib borildi. 2021–2024-yillarda davomida 108 nafar bemorda uchinchi molyar tish ekstraksiyasidan keyingi asoratlар qayd etildi. Tadqiqot davomida bemorlarning jinsi, yoshi, tishning joylashuvni va olib tashlash usuli inobatga olindi.

Natijalar. Jarrohlilik usuli bilan davolangan bemorlarning 85%(foiz)ida muvaffaqiyatli natijalar kuzatildi. Bemorlarning aksariyati operatsiyadan keyingi bir hafta ichida to’liq tuzalishga erishdi va shundan keyin boshqalariga dastlabki operatsiya qilingan.

Xulosa. Maqoladagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jarrohlik yo'li bilan tishni olib tashlash amaliyoti bemorlar uchun eng samarali usuldir. Zamonaviy diagnostika texnologiyalari va lazer usullarini qo'llash jarrohlik asoratlarini sezilarli darajada kamaytiradi va bemorlarning tiklanish iarayonini tezlashtiradi.

Kalit so'zlar: uchinchi molyar, aql tishi, jarrohlik amaliyoti, davo usullari, diagnostika, tish olish asoratlari, innovation texnologiyalar.

Treatment of third molars: modern approaches and creative solutions

Lochinbek Sh.Zakirov ^{*1}, Qayum J.Suvanov ¹

Iqtibos: L.Sh. Zakirov, Q.J.Suvonov.
Uchinchilarning davosi: zamон
yondashuvlar va kreativ yechimlar. **20**
4.2.8. <https://doi.org/>

Olinjær; 10.06.2024

Omigan, 10.06.2024

Tuzatılgan: 18.06.2024

Qabul qilingan: 25.07.2024

Copyright: © 2024 by the authors.
Submitted to for possible open access
publication under the terms and
conditions of the Creative Commons
Attribution (CC BY) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

¹ Department of dental and dental implantology, Tashkent State Dental Institute, Tashkent, 100207, Uzbekistan (e-mail: dds@mail.com (L. Z.)).

Abstract:

Abstract: Third molars (wisdom teeth) are one of the most widely discussed issues in medicine due to their positioning and anatomical structure, which complicates treatment. This article examines the effectiveness of modern diagnostic and treatment methods, as well as new surgical techniques.

Background. The aim of this article is to analyze the complications following third molar (wisdom tooth) extraction and to study the methods for their prevention and treatment.

Materials and methods. The study was conducted based on a retrospective analysis. Between 2021 and 2024, complications following third molar extraction were recorded in 108 patients. During the study, factors such as patients' gender, age, tooth position, and extraction method were taken into account.

Results. Successful outcomes were observed in 85% of patients treated with surgical methods. The majority of patients achieved full recovery within a week after surgery, and complications were rare. **Conclusion.** The results of the study indicate that surgical removal of the tooth is the most effective method for patients. The use of modern diagnostic technologies and laser techniques significantly reduces surgical complications and accelerates the recovery process for patients.

Keywords: third molar, wisdom tooth, surgical procedure, treatment methods, diagnostics, tooth extraction complications, innovative technologies.

Kirish

Uchinchi molyarlar, odatda 17-25 yosh oralig'ida chiqadigan oxirgi tishlar hisoblanadi. Ularning rivojlanishi aksariyat hollarda og'riq, infektsiya va boshqa asoratlar bilan bog'liq. Ko'plab bemorlarda aql tishlari noto'g'ri joylashadi yoki chiqmay qoladi, bu esa og'iz gigiyenasiga ta'sir ko'rsatadi va tibbiy davolash zaruratinu tug'diradi. Uchinchi molyarlarning davosi muammosi ko'pincha jarrohlik amaliyoti bilan hal qilinadi, biroq bu jarayon yuqori xavfga ega bo'lib, asoratlar keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, diagnostika va davolashning aniq va to'g'ri amalga oshirilishi bemorning sog'lig'i uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada uchinchi molyarlar davosini yaxshilash usullari, zamonaviy texnologiyalar va davolash amaliyotlarining takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Materiallar va usullar

Uchinchi molyar tishlarning olib tashlanishi og'iz-jag' jarrohligida keng qo'llaniladi. Turli tadqiqotlarga ko'ra, bu jarrohlik amaliyotidan keyin qon ketishi, yallig'lanish, jag' mushaklari kontrakturasi kabi asoratlar kuzatiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yosh bemorlarda suyak yumshoqroq bo'lishi sababli asoratlar kamroq uchraydi. Keksalarda esa suyak zichroq bo'lib, ekstraksiya murakkabroq kechadi. - da ham aql tish anomaliyalari kiritilgan bo'lib aql tishlarni retension ko'rinishda impakt holatda chiqishi K01.0 va K01.1 ko'rinishida belgilanadi Bundan tashqari, bemorlarning individual fiziologik xususiyatlari ham katta rol o'ynaydi. Masalan, diabet va gipertoniya kabi umumi kasalliklari bor bemorlar jarrohlikdan keyin tiklanish jarayonida ko'proq muammolarga duch kelishadi. Shu bois, operatsiyadan oldin har bir bemorni sinchkovlik bilan baholash muhimdir. WoS dan izlangan ma'lumotlarga binoan butun dunyoda uchinchi molyar tishlarning olib tashlanishi og'iz-jag' jarrohligida keng qo'llaniladi. va hamkorlari (2019) ushbu operatsiyaning xavfsizligini oshirish uchun to'g'ri diagnostika va rejalashtirish muhimligini ta'kidlagan. Chrcanovic (2020) esa uchinchi molyar ekstraksiyasidan keyingi asoratlarning turlari va ularning oldini olish usullarini keng yoritgan. Blondeau va Daniel (2017) o'z tadqiqotlarida yosh bemorlarda suyakning elastikligi yuqori bo'lishi sababli asoratlar kamroq uchrashini ko'rsatgan. Shuningdek, diabet va gipertoniya kabi kasalliklar jarrohlikdan keyingi tiklanish jarayoniga salbiy ta'sir qilishi haqida ham ma'lumot bergen. Chrcanovic (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotda minimal invaziv usullar va zamonaviy texnologiyalar postoperatsion tiklanish jarayoniga qanday ta'sir qilishi o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yondashuvlar qon ketishi va infektsiya xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Uchinchi molyar tishlarning ekstraksiyasi og'iz-jag' jarrohligida eng ko'p bajariladigan rejalashtirilgan amaliyotlardan biri bo'lib, umumi jarrohlik aralashuvlarining qariyb 85-90% ini tashkil etadi. Aql tishini olib tashlash jarayoni turli xil asoratlar bilan kechishi mumkin. Ushbu tadqiqot retrospektiv tahlil usulida olib borilib, 2023–2024-yillar oraliq'ida 100 nafardan ortiq bemorda uchinchi molyar tishni chiqarishdan keyin yuzaga kelgan asoratlar o'rganildi. Tadqiqot davomida bemorlarning yoshi, jinsi, tishning joylashuvni va olib tashlash usuli kabi omillar tahlil qilindi.

Tadqiqotga kiritish mezonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Faqat bitta uchinchi molyar tish olib tashlangan bemorlar;
- Operatsiyadan oldin hech qanday infeksiyon kasallikka chalimagan shaxslar;
- Antibiotik profilaktikasi qo'llanilmagan holatlar.

Tadqiqotdan chiqarish mezonlari esa quyidagicha belgilandi:

- Bir vaqtning o'zida bir nechta tish olib tashlangan bemorlar;
- Jiddiy tizimli kasalliklarga ega shaxslar;
- Homilador ayollar.

Asoratlarning yuzaga kelish ehtimoli bemorning jinsi, yoshi, tishning rivojlanish darajasi, joylashuvi va operatsiya turi bilan bog'liq holda b

Natijalar

Operatsiyadan keyin 16 ta bemorda (15,0%) turli xil asoratlar kuzatildi: 9 bemorda atrofdagi to'qimalarning yallig'lanishi; 4 bemorda jag' mushaklari kontrakturasi; 1 bemorda gaymor bo'shlig'i ochilib qolishi; 1 bemorda gematoma; 1 bemorda til nervining vaqtinchalik sezgirlik buzilishi (paresteziya). Ushbu natijalar ko'rsatadiki, murakkab ekstraksiyalar va pastki jag'ning uchinchi molyar tishlari olib tashlangan holatlarda asoratlar nisbatan ko'proq uchraydi. Bundan tashqari, bemorning yoshi yoki jinsi va olib tashlangan tishning rivojlanish bosqichi o'tasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik aniqlanmadи.

Munozara

Ilmiy adabiyotlarda uchinchi molyarlar masalasida ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan. Bir necha asrlar davomida bu tishlar tibbiyotda katta qiziqish uyg'otib kelgan. Aql tishlarining chiqishi ko'p hollarda jag'ning cheklangan hajmi sababli qiyinlashadi, bu esa ularni noto'g'ri yo'nalihsda o'stirib yuboradi. Natijada, bemorlarda og'riq va infektsiya kabi noxush holatlardan kuzatiladi. Jarroxlik amaliyoti uchinchi molyarlarni olib tashlashning eng keng tarqalgan usulidir. Bir qancha tadqiqotlar, masalan, R.Smith va P.Johnson tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar, tishni olib tashlash jarayonida qo'llaniladigan texnologik yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilgan. Smith tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda uchinchi molyarlarni rentgen tasvirlari yordamida aniq joylashuvini aniqlash va jarrohlik amaliyotini optimallashtirish usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Brown yangi minimal invaziv texnologiyalar yordamida jarrohlik amaliyotining xavfsizligini oshirish yo'llarini o'rgangan. Adabiyotlar shuningdek, uchinchi molyarlarning infektsiyalari va asoratlarini davolashda antibakterial terapiyalar qo'llanilishi haqida ham ma'lumot beradi. Antibiotiklar va og'riqni goldiruvchi vositalar qisqa muddatli yengillik taqdim etsa-da, tishni olib tashlashning samarali usuli sifatida keng qo'llanilishi hozirgi kunga kelib eng yaxshi yondashuv hisoblanadi.

Xulosa

Jarrohlik usuli bilan davolangan bemorlarning 85%(foiz)ida muvaffaqiyatli natijalar kuzatildi. Bemorlarning aksariyati operatsiyadan keyingi bir hafta ichida to'liq tuzalishga erishdi va asoratlar kam hollarda uchradi. Ushbu holatlarda asosiy asoratlar tishning jag' nervlariga yaqin joylashuvi va tish ildizining murakkabligi bilan bog'liq bo'ldi. Konservativ usullar bilan davolangan bemorlarning esa 55% (foizi)da davo samarasiz bo'lib, vaqt o'tishi bilan qayta davolanishga ehtiyoj tug'ildi. Bu ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, aql tishlarini olib tashlash usuli davolashning eng samarali usulidir. Shuningdek, yangi texnologiyalar, jumladan, lazer texnologiyalari va minimal invaziv jarrohlik usullari, tibbiy jarayonlarni yengillashtiradi va bemorlarning tiklanish davrini qisqartiradi. Bir qancha tadqiqotlarda lazer texnologiyasi yordamida bemorlarning tuzalish jarayoni tezlashgani va asoratlar kamaygani qayd etilgan. Shuningdek, og'riqni kamaytirish uchun maxsus anestetik vositalar va preparatlar qo'llanilishi davo samaradorligini oshiradi. Uchinchi molyarlarning davo usullarini takomillashtirish bugungi tibbiyotda dolzarb masalardan biridir. Maqoladagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jarrohlik yo'li bilan tishni olib tashlash amaliyoti bemorlar uchun eng samarali usulidir. Zamonaviy diagnostika texnologiyalari va lazer usullarini qo'llash jarrohlik asoratlarini sezilarli darajada kamaytiradi va bemorlarning tiklanish jarayonini tezlashtiradi. Kelajakda uchinchi molyarlarni davolashda minimal invaziv texnologiyalar va diagnostika usullarining yanada rivojlantirilishi tibbiy amaliyotni takomillashtirishda muhim rol o'yndaydi. Biroq, konservativ usullar faqat vaqtinchalik davolash sifatida qo'llanilishi mumkin va aksariyat hollarda tishni olib tashlashdan boshqa yechim yo'q. Shuning uchun uchinchi molyarlarni davolashning optimal yondashuvi sifatida jarrohlik amaliyotlarining qo'llanilishi tavsiya etiladi.

Mualliflarning hissalar K

onseptualizatsiya va metodologiya Z.L.; dasturiy ta'minot, R.T.; rasmiy tahlil, Dj.Sh.; resurslar, T.B. .; ma'lumotlarni kuratorlik qilish, S.Q.; original matnni yozish, Z.L.; rahbarlik va loyiha boshqaruvi Z.L.; Barcha mualliflar nashr qilingan qo'lyozma versiyasi bilan tanish va u bilan rozi.

Authors' contribution.

Conceptualization and methodology Z.L.; software, R.T.; formal analysis, Dj.Sh.; resources, T.B. .; data curation, S.Q.; writing original text, Z.L.; leadership and project management Z.L.; All authors are familiar with and agree with the published manuscript version.

Moliyalashtirish

Ishga tashqi moliya ajratilmadi barcha kuzatuvlar va amalga oshirilgan amaliyotlar mualliflar tomonidan qoplandi.Tadqiqotni o'tkazish uchun joy uchun mualliflar ish joylari tanlandi va barcha kuzatuvlar shu joyda amalga oshirildi.

Funding source.

No external funding was allocated for the work; all observations and conducted procedures were covered by the authors. The authors' workplaces were chosen as the research sites, and all observations were carried out there.

Nashrga xabardor qilingan rozilik.

Barcha tadqiqot ishtiroychilaridan xabardor qilingan rozilik olindi.

Consent for publication.

Informed consent was obtained from all subjects involved in the study.

Ma'lumotlar mavjudligi to'g'risidagi bayonot

Taqdim etilgan natijalarни tasdiqlovchi ma'lumotlar, shu jumladan tadqiqot davomida tahlil qilingan yoki yaratilgan ommaviy arxivlangan ma'lumotlar yaratilmagan ya'ni maxfiylik yoki axloqiy cheklovlar tufayli ma'lumotlar mavjud emas

Data Availability Statement

No publicly archived data supporting the presented results, including data analyzed or generated during the study, has been created. That is, due to confidentiality or ethical restrictions, the data is not available.

Rahmatnomalar

Mazkur o'r ganishni amalga oshirishda bizga yaqindan yordam bergen Urganch shahridagi "Toshkent shifo klinikasi" va klinika rahbari Jumaniyozov.Sh va ilmiy rahbarligi uchun TDSI Jarroxlik stomatologiyasi va dental implantologiya kafedrasi professori Suvanov.Q larga o'z minnatdorchiligidizini bildiramiz.

Acknowledgments

We express our gratitude to the "Toshkent Shifo Clinic" in Urgench and its director, Jumaniyozov Sh., for their close assistance in carrying out this study, as well as to Professor Suvanov Q. from the Department of Surgical Dentistry and Dental Implantology at TDSI for his scientific supervision.

Manfaatlar to'qnashuvi

Homiyalar tadqiqotni loyihalashda ishtiroy etmagan; ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish yoki sharhlashda; qo'lyozmani yozishda yoki natijalarini nashr etish to'g'risida qaror qabul qilish mualliflar tomonidan amalga oshirilgan.

Conflict of interest

The sponsors did not participate in the design of the study; data collection, analysis, or interpretation; manuscript writing, or the decision to publish the results. All these tasks were carried out by the authors

Adabiyot

- [1] Ellis E .,Hupp J.R., Myron.R.T., Contemporary Oral and Maxillofacial Surgery. Elsevier, 2019.
- [2] Chrcanovic B.R. Complications in Third Molar Surgery. Oral Maxillofac Surg Clin North Am, 2020.
- [3] Blondeau F., Daniel N.G. Extraction of Impacted Mandibular Third Molars. J Can Dent Assoc, 2017.
- [4] Andreishchev A.R. Complications of teething / – St. Petersburg: SpetsLit, 2007. – pp. 115-146.
- [5] Somov M.M., Shomurodov K.E., Akhmadaliev N.N. Monitoring of hospitalized pregnant women with odontogenic inflammatory diseases of CHL in 2017-2019 on the basis of the clinic of adult surgical dentistry of TSSI //Innovative dentistry. - 2020. – pp. 116-119.
- [6] Suvonov K.J., Rustamova H.E. Forecasting the risk of dental diseases in pregnant women / Method. Recommendations Tashkent. 2008. - 13 p

- [7] Hupp J.R. Principles of Management of Impacted Teeth. Oral and Maxillofacial Surgery Clinics of North America, 2015.
- [8] Mamatov M.M., Daminov A.N. "Stomatologiya va jarrohlik stomatologiya asoslari" — Toshkent: O'zbekiston Tibbiyot nashriyoti, 2020. — 312 b.Coulthard P., Bailey E., Esposito M. Surgical Techniques for the Removal of Mandibular Wisdom Teeth. Cochrane Database of Systematic Reviews, 2014.
- [9] Kim S.G., Park S.S. Complications of Wisdom Tooth Surgery and Their Prevention. Journal of the Korean Association of Oral and Maxillofacial Surgeons, 2018.
- [10] Ghaeminia H., Perry J., Nienhuijs M.E. Position of Impacted Third Molars and Their Relationship with Complications: A Systematic Review. International Journal of Oral and Maxillofacial Surgery, 20

Nashriyot javobgar emas/ eslatmasi:

Barcha nashrlarda keltirilgan bayonotlar, fikrlar va ma'lumotlar faqat mualliflar va ishtirokchilarga tegishlidir, na Jurnal va na muharrirlar. Jurnal va muharrirlar, mazkur kontentda keltirilgan har qanday g'oyalar, usullar, ko'rsatmalar yoki mahsulotlar natijasida insonlar yoki mulkka yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar emas.

Disclaimer of liability/Publisher's Note: The statements, opinions and data contained in all publications belong exclusively to individuals. The authors and participants, and the Journal and the editors. The journal and the editors are not responsible for any damage caused to people or property resulting from any ideas, methods, instructions or products mentioned in the content.